

ONA TILI PREDMETI VA UNING MAZMUNINI MODDIYLASHTIRISH DARAJALARI.

Go'zal Usmonova Rustamovna

Nizomiy nomidagi TDPU o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi O'zbek terminologiya.

Annatatsiya: Ushbu maqola ona tilidan ta'lif mazmunini moddiylashtirish shakllari. Ta'lif mazmuni murakkab hodisa bo'lganligi uchun ta'lif jarayoniga olib kirgunga qadar ularga pedagogik ishlov beriladi. Avvalo, darslik mualliflari ta'lif mazmuniga ishlov berib, uni o'quv materiali shakliga olib kelishadi: ta'rif, aniqlik, qoidalarni bolalaming yoshi, tayyorgarligi, bilish imkoniyatlariga moslashtirilishi haqida.

Kalit so'zlar: Ona tili predmeti, nazariy va amaliy xususiyatlari, o'quv predmetlari.

MATERIAL LANGUAGE SUBJECT AND LEVELS OF MATERIALIZATION OF ITS CONTENT.

Guzal Usmanova Rustamovna

Nizomiy TDPU Uzbek language and literature Uzbek terminology.

Annotation: This article summarizes the content of mother tongue education. because the content of education is a complex phenomenon, they are given pedagogical processing before being brought into the educational process. First of all, the authors of the textbook develop the content of education and bring it into the form of educational material: definition, clarity, adaptation of the rules to the child's age, readiness, learning abilities.

Keywords: Mother tongue subject, theoretical and practical features, subjects

Kirish: Ona tili didaktikasining asosiy vazifalaridan biri maktab ona tili predmetining xususiyatlari, tarkibiy qismlarini tavsiflash, uning mazmunini moddiylashtirish darajalarini asoslashdan iborat. Maktab ona tili predmeti tilshunoslik fanining umumiyy asoslarini yoshlarga o'rgatishga m oijallangan. Shunday ekan, o'zbek tilshunosligi va ona tili predmetining o'xshash hamda farqli tomonlari nimalardan iborat? Ona tilining umumiyy asoslarini qanday tushunmoq kerak? Hali ham maktab o'qituvchilari, mutaxassis-metodistlar faoliyatida ona tilidan ma'lumot va ta'lif mazmunlarini farqlamaslik hodisasi uchrab turadi. Agar ona tilidan ma'lumot va ta'lif mazmuni o'zaro daxldor ikki xil hodisa boisa, ularning har birini moddiylashtirish darajalari mavjudmi? Ona tili predmeti va ona tili darsliklari bir narsami yoki ulami bir-biridan farqlash zaruriyati bormi? Bu savollarga javob izlash maktablarda ona tili o'qitishning nazariy va amaliy xususiyatlarini tavsiflashga imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism: Ona tili didaktikasi sohasidagi eng dolzarb muammo.- lardan biri ona tilidan ma'lumot mazmunini turli ijtimoiy institutlarga — maktabgacha ta'lif muassasalari, boshlang'ich ta'lif, umumiyy o'rta taiim maktablari, kollej, litsey hamda oliy o'quv yurtlariga moslab tanlashdan iborat. Ona tilidan m aium ot mazmuniga pedagogik ishlov berish va uni bolalarning bilish imkoniyatlariga moslashtirish yo'li bilan turli ijtimoiy institutlar o'rtasida vorislik o'matiladi.

Ona tilidan ma'lumot berish yo'nalishlari. Barcha o'quv predmetlariga o'xshab ona tilidan ma'lumot berish ham uch yo'nalishda tashkil etiladi: hozirgi o'zbek tilshunosligining umumiyy asoslaridan m a'lumot berish va shu orqali bolalami fikrlashga, nutqni tuzish va ijro eta olishga o'rgatish; o'quvchilarining aqli, zehni, tafakkurini rivojlantirish;

bolalarda o'z nutqi, o'zgalar nutqi, tilga m unosabatni tarbiyalash. Hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining umumiyy asoslari tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi to'g'risidagi tasavvurlardan iborat. Til haqidagi tasavvurlarning mohiyati va jam iyatda bajaradigan ishiga qarab ikki guruhga ajratm oq ma'qul:
a) kundalik turmush va kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlar;

b) tilni, til to‘g‘risidagi tasavvurlarni, binobarin, tilshunoslikni rivojlantirishga daxldor bilimlar. Maktab ona tili predmeti negizini kishilarning o‘zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlar tashkil etadi.

Xulosa: Kishilarning o‘zaro aloqalashuvi, o‘z fikr va muloha zalarini nutq sharoitiga mos shakllarda bayon qilish uchun zaruriy bilimlar tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi to‘g‘risidagi tasavvurlardan tanlab olinadi. Garchand, maktabda fonem a, leksema, sintagm a, morfema kabi

qator tushunchalarni o‘rgatish ko‘zda tutilmagan bo‘lsada, nutq tovushi va uning yozuvdagi belgisi — harf, nutq tovushlarining m a’no ajratish xususiyatlari, ularning artikulyatsiyasi, nutq tovushlarining tu rlari (unli va undosh, jarangli va jarangsiz), bo‘g‘in, uning turlari(ochiq va yopiq va sh.k.), urg‘u va uni nutqda to‘g‘ri qo‘llash, so‘z m a’nolari (o‘z va ko‘chma m a’no, yaqin ma’no, qarama-qarshi ma’no), so ‘z yasovchi, so‘z o‘zgartuvchi, tuslovchi, turlovchi qo‘srim chalar, so‘z turkumlari, turli sintaktik qurilma (konstruksiya)lar (so‘z birikmasi, gap, sodda va qo‘shma gap) kabilar ona tili ta ’limining asosini tashkil etadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. T a’lim taraqqiyoti jurnali 1-maxsus son. U m um iy o ‘rta ta’limning davlat ta’lim standard va o‘quv dasturi (Ona tili).—T.: 1999.
2. TOSHTEMIROVA M. Ona tili darslarida o ‘quvchilaming nutq madaniyatini shakllantirish. T a’lim jarayonida nutq mada niyatini takomillashtirish masalalari. « 0 ‘zbek tili» Doimiy Anjumani beshinchi yig‘ilish tezislari to’plami (1999-yil 29-30aprel). — T.: «Sharq», 1999.
3. XUDOYBERGANOVA M. Uchinchi sinfda ona tili darslari.— T.: 1988.
4. XUDOYBERGANOVA M. Ikkinci sinfda ona tili darslari. —
3. T.: 1977.
4. XO ‘JAYEV A. Izohli metodikaning ba’zi masalalari. — T.:1968.